

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

KONSTITUSIYA-ERKIN FARAVON HAYOT GAROVI
КОНСТИТУЦИЯ – ЗАЛОГ СВОБОДНОЙ И БЛАГОПОЛУЧНОЙ ЖИЗНИ.
CONSTITUTION – A GUARANTEE OF A FREE AND PROSPEROUS LIFE

Sultonmurodova Surayyo Iskandar qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti

Tarix yo'naliши 1-kurs magistranti

sultonmurodovasurayyo30@gmail.com

Tel:(50) 702-63-13

Annotatsiya: O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganidan buyon mamlakatda ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda muhim islohotlar amalga oshirildi. Davlat va jamiyat hayotining asosiy tamoyillarini belgilab beruvchi, inson huquq va erkinliklarining huquqiy kafolati vazifasini o'tovchi Konstitutsiya – nafaqat davlatchilikning muhim ramzi, balki har bir xalqning milliy g'ururi va o'z-o'zini hurmat qilishining huquqiy timsoli hamdir. Konstitutsiya mustaqillik yillari davomida barcha sohalarda, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ruhiy-madaniy hayotda izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilgan demokratik islohotlar uchun mustahkam huquqiy asos va asosiy huquqiy kafolatlardan biri sifatida xizmat qiladi. Bu har qanday huquqiy davlatga intilayotgan demokratik jamiyatda o'ta muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, fuqorolik institutlari, ta'lim huquqi, ijtimoiy huquq, konstitutsion islohotlar, bandlik va ish bilan ta'minlash.

Аннотация: С момента принятия Конституции Узбекистана в стране были реализованы важные реформы в социально-политической и экономической сферах. Конституция, определяющая основные принципы государственной и общественной жизни, служащая правовой гарантшей прав и свобод человека, является не только важным символом государственности, но и правовым воплощением национальной гордости и самоуважения каждого народа. На протяжении лет независимости Конституция служила прочной правовой основой и главной правовой гарантшей для последовательных и поэтапных демократических реформ во всех сферах: социально-экономической, политической, правовой, духовно-культурной. Это имеет огромное значение для демократического общества, стремящегося к созданию правового государства.

Ключевые слова: Конституция, институты гражданского общества, право на образование, социальные права, конституционные реформы, занятость и обеспечение трудовой деятельностью.

Annotation: Since the adoption of the Constitution of Uzbekistan, significant reforms have been implemented in the social, political, and economic spheres of the country. The Constitution, which defines the fundamental principles of state and public life and serves as a legal guarantee of human rights and freedoms, is not only an important symbol of statehood but also a legal embodiment of every nation's national pride and self-respect.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Over the years of independence, the Constitution has served as a solid legal foundation and a primary legal guarantee for consistent and gradual democratic reforms in all areas, including socio-economic, political, legal, and spiritual-cultural life. This holds paramount importance in a democratic society striving to establish a rule-of-law state.

Keywords: Constitution, civil society institutions, Right to education,social rights, constitutional reforms,employment and job provision.

KIRISH

Konstitutsiya — jamiyat tayanchi va yurt taraqqiyotining huquqiy kafolatidir.Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan huquqiy hujjatdir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Konstitutsiya loyihasi ustida taxminan ikki yil davomida ishlangani, ikki yarim oy mobaynida umumxalq muhokamasidan o‘tganligi va shu vaqt oralig’ida u xalqning fikr xazinasi durdonalari bilan boytilganini ta’kidlaganlar.Oliy Kengash sessiyasiga muhokama qilish uchun kiritilgan Konstitutsiya loyihasi ustidan shu vaqt oralig’ida ko’plab o’zgartirishlar amalga oshirilib 80 dan ortiq qo’shimchalar takliflar va o’zgartirishlar kiritilgan. 1992-yil 8-dekabrda 12-chaqiriq O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11-sessiyasida Konstitutsiyamiz qabul qilindi va shu kuni umumxalq bayrami deb e’lon qilindi. Konstitutsiya mustaqillik va demokratiyaning huquqiy poydevorini ta’minlash barobarida davlat va jamiyat o’rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.Shuningdek, insoniyatning ijtimoiy munosabatlarni hüquqiy tartibga solish va tashkil etish borasidagi eng ulkan yutuqlaridan biridir. U jamiyatdan alohida yashay olmaydi va qat’iy qoidalar to‘plami sifatida qaralmog‘i kerak emas. Aksincha, Konstitutsiya dinamik, doimiy ravishda o‘zgarib turadigan hujjat bo‘lib, zamonning jonli va o‘zgaruvchan xususiyatlarini aks ettiradi. Shu ma’noda, Harakatlar Strategiyasi Yangi O’zbekistonning yangi konstitutsiyon tasvirining asosiga aylangan.2021-yilgi O’zbekistondagi prezidentlik saylovlari davomida mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning mantiqiy davomiyligi sifatida muhim bir taklif ilgari surildi. 2021-yil 6-noyabrda Oliy Majlisning birgalikdagi majlisida Prezident Shavkat Mirziyoyev Yangi O’zbekistonni rivojlantirish strategiyasini konstitutsiyaviy islohotning nazariy asoslari sifatida belgilab berdi. Uning 2022-yilda chop etilgan "Yangi O’zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" kitobida konstitutsiyaviy islohotlarga bag‘ishlangan Huquqiy davlatda Konstitutsiya va jamiyatning rivojlanishi o’rtasida hech qanday bo‘shliq bo‘lmasligi kerak. Yangi O’zbekistonni rivojlantirish strategiyasi talablariga binoan, "inson – jamiyat – davlat" prinsip qilib olingan.Prezidentimiz tomonidan bu borada chuqur islohotlar amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Fuqarolik institutlari faoliyati.Konstutsiyamizning muhim ustuvor yo’nalishlaridan biri demokratik institutlarining rivojidir.Bu borada oxirgi yillarda parlament rolini oshirish, mahalliy boshqaruva organlarini mustahkamlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar o’tkazildi. Demokratik huquqiy davlat, fuqarolik

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

jamiyatini barpo etishni o‘zining oliv maqsadi deb bilgan xalqimiz Konstitutsiya va milliy qonunchiligimizga asoslangan holda shu maqsadga erishishning murakkab va mas’uliyatli yo‘lidan ishonch va qat’iyatlik bilan odimlamoqda. O‘tgan tarixan qisqa davr mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida tub burilishlar davri bo‘lganligini jahon hamjamiyati ham e’tirof etmoqda. Konstitutsyaning 32-moddasi O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatçilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘li bilan ham amalga oshirilishi haqida normaga to‘ldirildi. Konstitutsyaning 78-moddasiga yangi 21-band kiritilib, unda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining birligidagi vakolatlari safariga parlament nazorati instituti kiritildi. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mustaqilligini va ayni vaqtda vakillik organi oldidagi mas’uliyatini kuchaytirish maqsadida Konstitutsyaning 103-moddasi hokimlarning ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va ularni rivojlantirish borasida hisobotlar taqdim etish majburiyati yuklatilib qayta to‘ldirildi.

Konstitutsiyada ta’limning o’rni. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqning erkinligi, huquqlari va davlatning ijtimoiy majburiyatlarini o‘zida aks ettirgan asosiy qonun hujjatidir. Unda ta’lim sohasiga alohida o‘rin ajratilgan bo‘lib, bu davlatning ta’limni rivojlantirishga bo‘lgan e’tiborini ko‘rsatadi. Ta’lim, nafaqat insonning shaxsiy rivojlanishi, balki jamiyatning iqtisodiy va madaniy yuksalishida muhim omildir. Konstitutsiyada belgilangan ijtimoiy kafolatlar asosida ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimi yaxshilandi, kambag‘allikka qarshi kurash va bandlikni ta’minlash choralarini ko‘rildi. Xususan, ta’lim tizimining Konstitutsiyaga mosligi, ta’lim olish uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash, turli ta’lim shakllarini (davlat va xususiy) hamda o‘quv muassasalarini qo‘llab-quvvatlashni, shuningdek, qishloq joylari va chekka hududlarda ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishni kafolatlab qo‘yilgan. Konstitutsiya ta’lim sohasida asosiy huquqiy poydevor bo‘lib, uning yangi tahririda IX bob, 50-moddada har bir inson ta’lim olish huquqiga egaligi qayd etilgan. Davlat tomonidan uzlusiz ta’lim tizimi rivojlantirilib, maktabgacha ta’limdan boshlab umumiy o‘rtalig‘ich professional ta’limga qadar bepul ta’lim olish kafolatlanadi.

Ijtimoiy huquqiy masala. Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyada ijtimoiy davlat g‘oyasi shunchaki bayon etilmagan. Xususan, Konstitutsyaning 42-48 moddalarida har bir shaxsning mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish, homildadorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirishni taqiqlash, davlat fuqarolarning bandligini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish, majburiy mehnatni taqiqlash, har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo‘qotganda ijtimoiy ta’minot olishi ko‘zda tutilgan. Konstitutsyaning 57-moddasida esa mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida ekaanligi kafolatlangan. Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to‘laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta’minalash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarini ko‘radi.

XULOSA

Konstitutsiya – davlat va jamiyatning huquqiy asoslarini belgilaydigan muhim hujjat bo‘lib, u erkin va farovon hayot garovi sifatida muhim ahamiyatga ega. Har bir fuqaro o‘z Konstitutsiyasini hurmat qilishi va uning normalarini o‘z faoliyatida amalga oshirishi jamiyatning demokratik va barqaror rivojlanishi uchun asos yaratadi. Shu bois, Konstitutsiyaga bo‘lgan hurmat va sodiqlik fuqarolik burchi sifatida qaraladi. Farovon jamiyat barpo etishning asosiy omillari - iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy tenglik vaadolatdir. Konstitutsiya ushbu maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan huquqiy asosni ta’minlaydi Fuqarolarning sog‘liqni saqlash, ta’lim, ijtimoiy ta’minot kabi asosiy ehtiyojlari Konstitutsiyada ko‘zda tutiladi Konstitutsiya O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi, xalqaro maydondagi siyosiy suvereniteti va ichki barqarorligini ta’minlash uchun huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bu hujjat nafaqat xalqning irodasini aks ettiruvchi huquqiy poydevor, balki jamiyatning barcha sohalarini rivojlantirish, fuqarolar huquqlarini himoya qilish va huquqiy davlatni shakllantirish uchun mustahkam kafolat ekanligini ko‘rsatadi. 32 yil davomida Konstitutsiya qoidalari asosida qabul qilingan islohotlar va qonunchilik hujjatlari ijtimoiyadolat, iqtisodiy barqarorlik va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga xizmat qildi. Ushbu davr mobaynida Konstitutsiya xalq manfaatlariga mos ravishda rivojlanib, demokratik tamoyillarning mustahkamlanishini ta’minladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Konstitutsiya mamlakatimizning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida asosiy rolni bajarayotgan muhim hujjat sifatida o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Konstitutsiya asosida olib boriladigan keng qamrovli islohotlar yurtimiz farovonligini oshirish, xalq manfaatlarini himoya qilish va xalqaro hamjamiyatda obro‘-e’tiborni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
2. <https://www.lex.uz>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-respublikasi-konstitutsiyada-ijtimoiy-masalalarining-huquqiy-jihatdan-kafolatlanishi>
4. Husanov.O.T. Konstitutsaviy huquq darslik - Toshkent-2022
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgalikda barpo etamiz – Toshkent: O‘zbekiston. 2016
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. O‘zbekistonda yoshlarga oiddavlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi to‘g’risida